
Paxta mavsumi qizg'in bormoqda

Tumanimiz dalalarida bobodehqonlarimizning erta bahordan qilingan samarali mehnatlari tufayli mo'l hosil yaratilganligini ko'rib ko'nglingiz yayraydi. Bugun dalalar oppoq libosga burkanganday.

Bugungi kunda terimchilarga qulay sharoitlar yaratish, kunlik terim sur'atini oshirib borish, paxta tashish uchun traktor va pritseplar, tarozi doim taxt holat bo'lishini ta'minlash va eng muhimi mehnatga o'z vaqtida haq to'lash, ilg'or terimchilarni muntazam rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maqsad bitta qishloq xo'jalik xodimlarining zalvorli mehnati evaziga yetishtirilgan paxtani ayni kunlarda jadallik bilan terib olish, "Oq oltin" xirmonini barpo etish, xalqimiz turmushining farovonligiga erishishdir.

Bugun tuman kengashi deputati M. Mamajonov, "Toshog'olik" MFY raisi A. Azizov, xotin-kizlar faoli G. Ortiqova va mahalla faollari Z. Ubaydullaeva, N. Badalboevlar "Qosh Salimbek" fermer xo'jaligidagi paxtakorlardan xabar olishib, paxta yig'im terimida faol katnashayotgan va ilg'or terimchilarga minnatdorchilik tariqasida sovg'alar berishdi.

Rishton tumani hokimligi axborot xizmati

2022-09-19 15:18:45